

**INGLIZ-O‘ZBEK TILIDAGI SO‘Z VA SO‘Z BIRIKMALARI
SEMANTIKASIDA TIL VA TAFAKKUR MUNOSABATLARI**

Muratxodjaeva Feruza Xotamovna

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Oriental universiteti,

G‘arb tillari kafedrasi dosenti

Inson azaldan dunyoni bilish, idrok etish masalasini turli darajada hal qilishga urinib keldi. Qadimgi yunon, rim faylasuflari, buyuk sharq mutafakkirlari dunyoni bilish mazmuni, shakllari haqida mushohada qilib kelganlar. Dunyoni hissiy sezgi a‘zolari yordamida bilish va aql yordamida anglashning mohiyati, vosita va usullari ko‘rsatib berilgan.

Dekart, Didro, Golbax kabi fransuz faylasuflari, Al-Xorazmiy Beruniy kabi qomusiy olimlar dunyoni bilish jarayonida sezgilar bilan bir qatorda tafakkurning muhim o‘rin tutishini o‘z davri imkoniyatlari darajasida ko‘rsatib berganlar. Bilish inson tafakkuridagi voqelik in‘ikosi sifatida tavsiflangan.

Tilning shakllanishi va rivojlanishida tafakkurning alohida o‘rni bor. Tafakkur birliklari o‘zaro muloqotni ta‘minlashda, kommunikasiyani amalga oshirishda, turli ko‘lamdagi obraz va ramzlarni shakllantirishda asos vazifasini bajardi. Aynan tafakkur narsa-hodisa, voqelik belgilarining nutqiy ifodasini ta‘minlash vositasi sifatida qaraladi.

Inson tafakkuri oddiydan murakkabga qadar takomillashib borgan. Dastavval, inson Amerika bixevioristlari mushohadalarining mohiyatida aks etgan predmet tafakkuriga ega bo‘lgan. Ya‘ni real narsa-hodisani, voqelikni idrok eta olgan. Kishilik jamiyati taraqqiy etgan sari tafakkur darajasi ham o‘zgardi. Inson muayyan ko‘rinishga, shaklga, belgiga ega bo‘lgan narsa-buyum idrokidan mavhum voqelikni idrok etishgacha bo‘lgan rivojlanish bosqichini bosib o‘tdi. Bu xususiyat yozma nutq ifodasi bo‘lgan yozuv taraqqiyotida ham kuzatiladi. Inson narsaning o‘zini tasavvur qildi, uni xotirasida saqladi, keyin uning rasmini ongida aks ettirdi. Ierogliflarning shakllanishi, rasm, tasvirdan narsa-hodisani ifoda etuvchi belgi ko‘rinishiga o‘tishi ham inson tafakkurining narsa-buyum idrokidan mavhum voqelikni anglashga qadar bo‘lgan taraqqiyot darajasini ko‘rsatadi. Sh.Safarov tilshunoslikda lisoniy va nolisoniy tafakkur farqlanishini qayd etib o‘tadi. Tafakkurning bir necha ko‘rinishlarini keltirgan.

Til kishilik jamiyati asosida shakllangan va tabiat hamda jamiyat hodisalari, olam manzarasini inson ongida akslantirish omili sifatida yuzaga chiqdi. Nutqning shakllanishi bilish, idrok qilish jarayonlarini takomillashtirishga xizmat qildi. Olamning lisoniy manzarasi til vositasida xilma-xil tasvirlarga ega bo‘la bordi. Til inson tafakkurini boyituvchi omil sifatida baholanadi. Inson nutqi tafakkur ifodasi sifatida ijtimoiy-madaniy munosabatlarni, psixik-fiziologik holatlarni aks ettirish imkonini kengaytirdi.

Mantiq ilmida ham til va tafakkur munosabatlariga alohida e‘tibor berilgan. Tafakkur birliklari mantiq fanida, til birliklari kategorial tizim sifatida tilshunoslikda o‘rganiladi. Tilshunoslik nazariyasiga oid aksariyat adabiyotlarda tafakkurning umuminsoniy xarakterga ega bo‘lishi, til, uning qonun-qoidalari milliy xarakter kasb etishi ta‘kidlangan.

Dunyo tillarining qonun-qoidalariga ko‘ra bir-biridan farq qilishi, tafakkur shakllari, tamoyillari esa insonlarning millati, irqi, davridan qat’i nazar, hammada bir xil bo‘lishi qayd etilgan. Keyingi yillarda kognitiv tilshunoslikka doir tadqiqotlarda qayd etilayotgan “mental leksikon” tushunchasi tafakkurda milliy-madaniy belgilarning aks etishini namoyon etadi.

Axborot asrida “mental leksikon” tushunchasi keng qo‘llanmoqda. “Aqliy lug‘at”, “Assosiativ lug‘at” kabi tafakkur mahsullari yaratilmoqda. Mental leksikon keng ma’noda so‘zlarning shaxs ongida qanday taqdim etilishi va tizimlashtirilishi bilan bog‘liq tafakkur mahsulidir. Mental leksikon psixolingvistika va kognitiv tilshunoslikda qo‘llanadi.

Mental leksikon bilan bir qatorda uning tarjiması sifatida “aqliy leksika” termini ham qo‘llanmoqda. Bu – to‘g‘ri emas. Chunki, aqliy leksika rus tilida “umnaya leksika”ga to‘g‘ri keladi. Bu birikuv uslubiy jihatdan xatodir. Ikkinchidan, “mental” va “aql” tushunchalari aynan teng emas. Mental birligi aql so‘ziga nisbatan keng tushunchani ifoda etadi.

Mental leksikon insonga ma‘lum bo‘lgan hamda muloqot qilish uchun zarur bo‘lgan barcha tushunchalarni o‘z ichiga oladi. Tadqiqotlarda mental leksikon “ta’riflab bo‘lmaydigan ma’lumotlar ombori” sifatida tavsiflanadi. Shartli ravishda mazkur tushunchalar omborini “lug‘at” deb ham atashmoqda. Mental leksikon semantikaga asoslanadi. Mental leksikon narsa-buyum, voqelik, uning elementlari va ularga oid ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi. Masalan, Bu qiz menga ma’qul va Bu qiz ham yomon emas jumllarida qat’iy ravishda ijobiy belgilar ifoda etilgan. Shunga qaramay, ulardan anglashiladigan mazmunda farq bor. Birinchi jumlada salbiy belgilar ko‘zga tashlanmaydi, ikkinchi jumlada esa ijobiylikning salbiy belgilar bilan tutash chegarasi aks etgan.

Mental leksikon so‘zlarni jumllar yaratish uchun qanday qilib tanlash va birlashtirish funksiyasini bajaradi. Mental leksikonda elementlarning sintaktik imkoniyatlari va valentlik xususiyatlari ham namoyon bo‘ladi. Masalan, sher kelbatli, arslon kelbatli birikmalari, sheryurak qo‘shma so‘zi faqat erkaklar uchun belgi sifatida olinadi.

Mental leksikon shaxsga ma‘lum bo‘lgan barcha narsa-buyum, hodisani o‘z ichiga oladi. Ma’lumotlar ombori sifatida mazkur bilimlar bazasi muttasil yangilanib turishi, ayrim tushunchalar eskirishi, iste’moldan chiqishi mumkin. Neologizmlarning kirib kelishi, so‘zlarning eskirib, tarixiy va arxaik qatlamga aylanishi shundan dalolatdir.

Har qanday so‘zliklar ma‘lum bir tamoyillarga amal qilgan holda tartiblanadi. Masalan, lug‘atlar alifbo tartibida yoki LSG (leksik-semantik guruhlar) asosida joylashtirilishi mumkin.

Mental leksikonda so‘zlar quyidagi tamoyillar asosida joylashtiriladi:

1. Qofiya asosida: yosh – qosh – tosh – dosh – bosh – osh.
2. Omonimlik asosida: tort, to‘r, o‘t, shish, to‘y, tut, oshiq, uy, kir, ko‘r.
3. Sinonimlik asosida: yaxshi – durust – ma’qul – tuzuk.
4. Antonimlik asosida: oq-qora, yaxshi -yomon, katta-kichik.
5. Uyadoshlik asosida: g‘o‘za – paxta – tola – chigit – yog‘ – sovun.
6. Assosiativlik asosida: daraxt – barg – sarg‘aymoq –kuz.
7. Asosdoshlik asosida: tuz, tuzli, tuzsiz, tuzla, tuzdon.
8. Talaffuz asosida: dars – darz, qarz – qars, tuz – tus, xush – hush.

9. Chastota asosida: kelmoq (1023), aytmoq (1001), yurmoq (980)...

Mental leksikon inson tafakkuri rivojlangani, dunyoqarashi kengaygani sari boyib boradi. Mental leksikonda kirish leksikoni va chiqish leksikoni degan tushunchalar mavjud.

Chiqish leksikonida so‘zlar semantik imkoniyatlari asosida saqlanadi. Leksema semantikasi u birikishi va unga biriktirish mumkin bo‘lgan valentlik xususiyatlariga ko‘ra ham lisoniy ongda aks etadi. Bu modelga ko‘ra “ko‘rmoq” leksemasi semantik xususiyatiga asosan mental ongimizda ko‘rish sezgisi orqali anglanadigan harakat-holatni ifodalasa, sintaktik xususiyatiga ko‘ra esa vositasiz to‘ldiruvchi shaklidagi, valentlik asosida birikuvchi tuzilmalarni shakllantirish va ularning nutqda reallashuvi uchun xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1.Muratkhodjayeva, F. (2024). Cognitive Linguistics Theory in Anthropocentric Paradigm. International Journal of Industrial Engineering, Technology & Operations Management, 2(2), 63-70.

2.Boboyeva, M. (2023). SO ‘Z BIRIKMASINING POLIFUNKSIONAL MOHIYATI. Namangan davlat universiteti Ilmiy axborotnomasi,(7), 380-387.

3.Khaydarovna, B. M. (2024). DETERMINING THE LEXICAL MEANING OF PLACE PREPOSITIONS. TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G ‘OYALAR, 1(1), 30-33.

4.Muratkhodjayeva, F. (2024). Cognitive Linguistics Theory in Anthropocentric Paradigm. International Journal of Industrial Engineering, Technology & Operations Management, 2(2), 63-70.

5.Xotamovna, M. F. (2024). TRANSLATION DIFFICULTIES OF PHRASEOLOGICAL UNITS FROM ENGLISH INTO UZBEK. IMRAS, 7(11), 103-107.